O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

«Yengil sanoat texnologiyasi» fakul’teti
«Kasb ta'limi» kafedrasi

18-11guruh talabasi
Davlatova Bahoraning

“KIYIMLARGA ISHLOV BERISH ASOSLARI”NI O’QITISHDA MASOFAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYASI MAVZUSIDAGI

# BITIRUV MALAKA ISHI

Himoya qilishga ruhsat berilgan
Kafedra mudiri:____X.A.Gatayev
«____» ________________ 2015 y.

Ilmiy rahbar:
_____ kat.o’qit.J.G.Xalmuratova
Ilmiy maslahatchi: _______

kat.o’qit M.X.Isayeva
«____» _______________ 2015 y.

Toshkent - 2015

## Annotatsiya

Bitiruv malaka ishida ayollar syurtugining konstruktiv va texnologik yechimi, bo'lajak kichik mutaxassislarning texnologik ko'nikmalarini "Kiyimlarga ishlov berish" mavzusini masofaviy ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish orqali shakllantirish metodikasi mazmuni, tikuvchilik korxonalarida mehnat muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlar tizimi keltirilgan.

## Аннотация

В выпускной квалификационной работе рассмотрены конструктивное и технологическое решение модели женского кардигана, методика формирования информационно-технологических умений будущих младших специалистов при обучении теме «Обработка женского кардигана» на основе сетевых образовательных технологий, меры безопасности труда в швейных предприятиях.

## Annotation

In the qualification work is given sequence of design and technology of women's cardigan, the methodology of forming information-technological skills of the future little specialists at teaching of the theme "Technology of women's cardigan" with net educational technology, main arrangements of labour guarding at light industry enterprises.

MUNDARIJA


I BOB. KASB - HUNAR KOLLEJLARIDA «KIYIMLARGA ISHLOV BERISH ASOSLARI"NI O'QITISHDA MASOFAVIY TA'LIM TEHNONLOGIYASIDAN FOYDALANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .

1. Kasb-hunar kollejlarida «Kiyimlarga ishlov berish asoslari»ni o'qitishda masofaviy ta'lim texnologiyasini yaratish va ulardan foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari . . . . . . . . . . . . .
2. 3540600 - Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi tayyorlov yo'nalishining 3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar modeler – konstruktori ta'lim yo'nalishidagi "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanining o'quv - me'yoriy hujjatlari mazmuni . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .
3. «Kiyimlarga ishlov berish asoslari»ni o'qitish bo'yicha sillabusni ishlab chiqish . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .

II BOB. KASB - HUNAR KOLLEJLARIDA «Kiyimlarga ishlov berish asoslari»ni o'qitishda masofaviy ta'lim texnologiyasi BO'YICHA O'QUV - USLUBIY MAJMUA KOMPONENTLARINI ISHLAB CHIQISH . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .

1. «Kiyimlarga ishlov berish asoslari» bo'yicha o'quv mashg'ulotlari mazmunini ishlab chiqish . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .
2. «Kiyimlarga ishlov berish asoslari» bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining ishlanmasini tayyorlash . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .

III BOB. MEHNAT MUHOFAZASI QISMI . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .

1. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .

XULOSA . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI . . . . . . . . . . . . .

ILOVALAR . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillik yillarida Yurtboshimiz rahnamoligida Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishi natijasida amalga oshirilayotgan ishlar zamirida farzandlarimizni komil insonlar qilib tarbiyalash orqali yurtimiz taraqqiyotining mustahkam poydevorini qo‘yish, uning buyuk kelajagini bunyod etishdek ezgu maqsad yotadi.Yurtboshimiz A.Karimov o‘z so‘zlarida “Yoshlar hayotda o‘z o‘rinlarini topishi, salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan ta’minlash doimo davlatimizning diqqat-e’tiborida bo‘lib kelmoqda. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining asosiy vazifasi uzluksiz ravishda o‘sib borayotgan ehtiyojlariga muvofiq, shuningdek, kichik mutaxassisning aniq kasbiy malaka darajasiga yuqori talablar qo‘yuvchi bozor iqtisodiyotiga o‘tilishini hisobga olib, yuqori malakali va raqobatbardosh kichik mutaxassislarni tayyorlashdan iborat”1 – deb aytib o‘tadilar[1]. Xususan, kasb-hunar kollejlarida davlat ta’lim standartlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha kasb ta’limi yo‘nalishlarining tashkil etilishi va ularni tayyorlashdagi o‘quv-tarbiya jarayonida kichik mutaxassislarning kasbiy qv umumkasbiy bilimlarini mutaxassislik fanlarini ta’lim texnologiyalaridan foydalanib mashg‘ulotlarni tashkil etish bunga misol bo‘la oladi.

Bugungi kunda pedagogik dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilg‘or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o‘qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta’minlash kiradi.

Hozirgi kunda masofaviy ta’lim tizimini joriy qilish bo‘yicha yetarli malakalar to‘plangan. Ular bir-biridan nafaqat uslubiyoti bo‘yicha, balki, masofaviy ta’lim usullari sinovdan o‘tkazilayotgan mamlakatlarning o‘ziga xosligini ham hisobga olishi bilan farqlanadi. Shuning uchun aksariyat mutaxassislarning fikricha, kelajakda masofaviy ta’limga katta e’tibor qaratiladi, bunga sabab nafaqat axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, balki ko‘pchilik foydalanuvchilarning masofaviy ta’limni tanlashlari hisoblanadi.

Masofaviy ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarga ma’lumotlarni tezkor va aniq etkazish imkoniyatlarini yaratib berdi. SHu bilan birga ta’lim interaktiv bo‘lganligi sababli, o‘quvchining o‘z ustidan mustaqil ishlashning o‘rni juda katta axamiyatga ega bo‘ladi.

Hozirgi kunda masofadan o‘qitish dunyoning ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarida keng tarqalgan va qulay ta’lim shakli sifatida rivojlanmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti:** kasb-hunar kollejlarida “Kiyimlarga ishlov berish asoslar”ni o‘qitishda masofaviy ta’lim texnologiyasidan foydalanish jarayoni.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti:** kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni o‘qitishda masofaviy ta’lim texnologiyasidan foydalanishning mazmuni, shakli, metodi va vositalari.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:** kasb-hunar kollejlarida kichik mutaxassislarning kasbiy bilimlarini “Kiyimlarga ishlov berish asoslar”ni o‘qitishda masofaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish orqali shakllantirish.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:**

1.Mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalarni o‘rganish orqali kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni o‘qitishda masofaviy ta’lim texnologiyasidan foydalanish pedagogik muammo ekanligini ilmiy jihatdan asoslash.

2.Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni o‘qitishda masofaviy ta’lim texnologiyasidan foydalanish yo‘llarini aniqlash.

4.Kasb-hunarkollejlarida “Kiyimlarga ishlov berish asoslar» mavzui bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘qitishning texnologiyasini ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining metodlari***:* pedagogik taxlil**,** kuzatuv**,** savol-javob**,** suxbat.

**Bitiruv malaka ishining maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalari belgilandi:**

- Ayollar syurtugi uchun model tanlash va asoslash;
- Ayollar syurtugining konstruktiv va texnologik yechimlarini shakllantirish;

- kasb-hunar kollejlarida maxsus fan bo’yicha o’quv-me’yoriy hujjatlarni tahlil qilish;
- kasb-hunar kollejlarida “Ayollar syurtugiga ishlov berish” mavzusi bo’yicha o’quv mashg’ulotlari mazmunini ishlab chiqish;
- kasb-hunar kollejlarida kichik mutaxassislar tayyorlashda texnologik ko’nikmalarini shakllantirish muammolarini nazariy jihatdan o’rganish;
- “Ayollar syurtugiga ishlov berish” mavzusini o’qitishda masofaviy ta'lim texnologiyalarni ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilish;
- “Ayollar syurtugiga ishlov berish” mavzusini masofaviy ta'lim texnologiyalar asosida o’qitish metodikasini ishlab chiqish.

**Bitiruv malaka ishi metodlari:** ilmiy–pedagogik va texnologik adabiyotlarning tahlili, tizimlashtirish, kasb-hunar kollejlarida o’quv jarayonini kuzatish, suhbat.

# I BOB. KASB - HUNAR KOLLEJLARIDA «KIYIMLARGA ISHLOV BERISH ASOSLARI” O’QITISHDA MASOFAVIY TA’LIM TEHNONLOGIYASIDAN FOYDALANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

## 1. Kasb-hunar kollejlarida «Kiyimlarga ishlov berish asoslari»ni o’qitishda masofaviy ta'lim texnologiyasi va ulardan foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari

O‘qitishdagi axborot texnologiyalar bu o‘qitish faoliyatida qo‘llaniladigan elektron vositalar va ularni ishlatish usullari majmuidir.Elektron vositalar tarkibiga apparatli,dasturli va axborotli komponentlar kiradi.Ularni qullash ko‘rsatmalari o‘qitishdagi axborot texnologiyalarni metodik (uslubiy) ta‘minotida keltiriladi.

Masofaviy ta’lim bu o‘qitishning insonparvar shakli bo‘lib,an‘anaviy,yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslanadi.Bunda texnik vositalar o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi muloqot uchun hizmat qiladi. Shunga ko‘ra masofaviy o‘qitish kommunikatsiya va axborotni qayta ishlashning yangi texnik vositalari va sirtqi ta’limning asosiy usullariga tayanishi kerak. Bu o‘z navbatida masofaviy ta’lim tizimini tashkil etish to‘g‘risida gapirishga imkoniyat beradi. Masofaviy ta’lim tizimi apparatli,dasturli va uslubiy vositalarning murakkab kompleksi bo‘lib,o‘z ichiga server va ishchi stansiyalar,shaxsiy kompyuterlar, kommunikatsiya vositalari, umum tizimli va tarmoqli dasturlar ta‘minotiga, lokal va markazlashgan bilim va axborot banklarini boshqaruv tizimlari,o‘rgatuvchi dasturlari va shu dasturlarni yaratish uchun instrumental vositalariga ega bo‘lgan audio va video texnikalarni oladi.

O‘quv jarayonida o‘quvchi darslikdagi, elektron kutubhona va elektron darsliklardan, vidiokonferentsiyalardan foydalanadi.

Masofadan o‘qitish texnologiyasi (MO‘T) mahsus metod,vosita va o‘qitishning tashkiliy shakllari tizimi bo‘lib,ta’lim mazmunini ko‘p tarmoqli ravishda amalga oshirishga qaratilgan.

Kasb xunar kollejlarining ko‘pgina o‘qituvchilari (pedagogika va didaktika o‘qituvchilaridan tashqari) “o‘qitish metodi” tushunchasiga unchalik

qiziqmaydilar. Chunki koʻpchilik oʻqituvchilar oʻqitish faoliyatini empirik tarzda oʻrganib oladilar. Ular asoson kafedra mudirilari yoki yetakchi professor – oʻqituvchilariga taqlidan oʻqitish usullarini qoʻllaydilar. Lekin shu usullar qaysi ta'lim metodlari tizimiga kirishini bilmaydilar yoki qiziqmaydilar. Ta'lim metodini bilish ta'limni takomillashtirish-ning muhim  shartlaridan biridir.Ta'lim metodi har hil oʻquv predmetlarini oʻqitishni qanday amalga oshirish yoʻlarini belgilaydi.Ta'lim metodi oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyati toʻgʻrisida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriyadir.Masofadan oʻqitish har hil ta'lim metodlari orqali amalga oshiriladi va unda bir qancha usullardan foydalaniladi.Har bir  usul muayyan harakatlardan iborat boʻlib,oʻqitishning hal hil didaktik vositalari yordamida maʻlum bir maqsadga erishishga qaratiladi. Masofadan oʻqitish metodlaridan foydalanganda qoʻydagi usullarni qoʻllash mumkin: namoyish qilish, illyustratsiya, tushintirish, hikoya, suhbat, mashq, masala yechish, material ni yodlash, yozma ish va takrorlash kabilar.

Pedagogik jihatdan qayta ishlangan oʻquv mazmuni oʻz ichiga olgan masofaviy oʻqitish oʻqituvchi va oʻquvchi qoʻlidagi oʻquv vositalari oʻquv mazmunini taqdim etish, oʻquvchilarning oʻrganish faoliyatini tekshirish va boshqarish vazifasini bajaradi. Maʻlum bir oʻquv materiali bir qancha oʻrgatish vositalari (bosma materiallar, audio-video va boshqalari) bilan berilishi mumkin. Vositalarning har biri oʻz  didaktik imkoniyatlarga ega. Oʻqituvchi bu imkoniyatlarni bilishi va oʻquv materialini har hil vositalarga koʻra boʻlib chiqishi, didaktik vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan oʻquv axborotlarni tashuvchi tizim sifatida oʻquv materiallaridan oʻquv vositalari kompleksini yarata olishi kerak. Masofaviy oʻqitish tizimi vositalari qoʻydagilardan iborat boʻlishi mumkin:

1.Darsliklar (anʻanaviy darsliklar,elektron darsliklar, qoʻllanmalar, spravochniklar va boshqalar).

2.(Kompyuter) tarmoqdagi oʻquv-metodik qoʻllanmalar;

3.Odatdagi va multimediya variantlaridagi kompyuterli oʻqituv tizimlari;

4.Audio va oʻquv axborot materiallari;

5.Video o‘quv-axborot materiallari;

6.Masofaviy labaratoriya praktikumlari;

7.Masofaviy trenajyorlar;

8.Masofaviy axborot va bilimlar bazasi;

9.Masofaviy elektron kutubhonalar;

10.O‘rgatuvchi ekspert tizimlariga asoslangan o‘qitish vositalari;

11.Geoaxborotli tizimlarga asoslangan o‘qitish vositalari;

12.Virtual reallikka asoslangan o‘qitish vositalari.

Masofadan o‘qitish tizimida o‘qitish vositalari yangi axborot texnologiyalari vositasida amalga oshiriladi.

**3540600 - Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi tayyorlov yo’nalishining 3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar modeler – konstruktori ta’lim yo’nalishidagi “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanining o’quv - me’yoriy hujjatlari mazmuni**

Kasb-hunar kollejlarida 3540600 - Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi tayyorlov yo’nalishining 3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar modeler – konstruktori ixtisosligi bo’yicha o’qitiladigan asosiy maxsus fanlarga “Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish”, “Tikuv buyumlari texnologiyasi”, “Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish jihozlari” kabilar kiradi. Ушбу фан “Rasm va plastik anatomiya”, “Buyum dizayni”, “Odam anatomiyasi, fiziologiya va antropologiya”, “Kostyum va moda tarixi”, “Kiyimlarni kompyuterda loyihalash asoslari” kabi umumkasbiy fanlar bilan aloqadorlikda o’qitiladi.

“Kiyimlarga ishlov berish asoslari”ga oid mavzularni o’qitish“Tikuv buyumlari texnologiyasi” fani tarkibida keltirilgan. Asosan u quyidagi mavzularni o’z ichiga qamrab oladi:

1. Kiyim xaqida ma’lumot. Texnik me’yoriy xujjatlar. Tikuv korxonasidagi bajariladigan ishlar va ularning bosqichlari.
2. Kiyim bo’laklarini ipli biriktirish

3. Kiyim bo'laklarini yelimlab yopishtirish.
4. Electron payvand choklar
5. Kiyimlarga namlab-issiqlik shlov berish
6. Kiyim bichiqlarini tikishga tayyorlash. Detallarga qotirma yopishtirish.
7. Bezak beruvchi elementlarni tayyorlash.

"Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanini kasb-hunar kollejlarida o'qitish bo'yicha o'quv yuklamasi taqsimoti 1–2 jadvallarda berilgan.

1-jadval

"Tikuv buyumlari texnologiyasi" fani bo'yicha o'quv yuklamasining semestrlararo taqsimoti

| Kurs | Semestr | O'quv yuklamasi, soat |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 20 |
| 2 | 3 | 40 |
| 2 | 4 | 60 |
| 3 | 5 | 100 |
| 3 | 6 | 50 |

2- jadval

"Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanining o'quv mashg'ulotlari bo'yicha o'quv yuklamasining taqsimoti

| | Fan nomi | Jami ajratilgan soat | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Nazariy | Amaliy | Laboratoriya | Seminar | Kurs ishi | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
| 1 | "Tikuv buyumlari texnologiyasi" | 140 | 90 | 50 | | | | 63 |

3. Bitiruv ishi mavzusidan kelib chiqqan holda maxsus fanni o'qitishga mo'ljallangan taqvimiy mavzular rejasi fragmenti ishlab chiqiladi.

3-jadval

Taqvimiy mavzular rejasi

| T/r | Mutaxassislik va guruhlar | Umumiy ajratilgan soat (....soat) | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Hammasi | auditoriyadagi | | | | | | mustaqil ish |
| | | | jami | nazariy | amaliy | laboratoriya | kurs ishi | seminar | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 |
| 1 | 3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar modeler – konstruktori | 58 | | 12 | 46 | | | | |

4-jadval

| T/r | Mavzu | Ajratilgan vaqt (soat hisobida) | Mashg'ulot turi | Ta'lim metodalri | Predmetlararo aloqadorlik | Axborot manbalari, jihozlar va materiallar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| 1 | Kiyim haqida umumiy ma'lumot | 2 | Ma'ruza | Muammo texnologiyasi | KLA, TBT, TBJ | Tarqatma materiallar, moda jurnallari |
| 2 | Ayollar syurtyugining zamonaviy assortimenti | 2 | Ma'ruza | Keys stadi texnologiyasi | KLA, TBT, TBJ | Tarqatma materiallar, moda jurnallari |
| 3 | Ayollar syurtugining mayda detallariga ishlov berish | 4 | Ma'ruza | Muammo texnologiyasi | KLA, TBT, TBJ | Tarqatma materiallar, moda jurnallari |
| 4 | Ayollar syurtuginni model eskizini ishlab chiqish | 2 | Amaliy mashg'ulot | Muammo texnologiyasi | KLA, TBT, TBJ | Tarqatma materiallar, moda jurnallari |
| 5 | Ayollar syurtugini xisoblash va loyixalash | 2 | Amaliy mashg'ulot | Keys stadi texnologiyasi | KLA, TBT, TBJ | Tarqatma materiallar, moda jurnallari |
| 6 | Ayollar syurtugi andazalarini ishlab chiqish | 2 | Amaliy mashg'ulot | Keys stadi texnologiyasi | KLA, TBT, TBJ | Tarqatma materiallar, moda jurnallari |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 7 | Ayollar syurtugiga ishlov berish | 4 | Ma'ruza | Aqliy hujum texnologiyasi | KLA, TBT, TBJ | Tarqatma materiallar, moda jurnallari |

5-jadval

| **O'quvchilarning auditoriyada bajaradigan mustaqil ish (topshiriq)lari** | **Foydalaniladigan manbalar** | **Nazorat turi** | **Uyga vazifa** | **Sana va guruhlar** | | | | | | | | **Izoh** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | | | |
| **8** | **9** | **10** | **11** | **12** | | | | | | | | **13** |
| Kiyim haqida mumiy ma'lumot | Mos adabiyotlar | Og'zaki | Usullar | | | | | | | | | |
| Ayollar syurtyugining zamonaviy assortimenti | Mos adabiyotlar | Yozma | AK | | | | | | | | | |
| Ayollar syurtugining mayda detallariga ishlov berish | Mos adabiyotlar | Yozma | MK | | | | | | | | | |
| Ayollar syurtuginni model eskizini ishlab chiqish | Mos adabiyotlar | Og'zaki | AK | | | | | | | | | |
| Ayollar syurtugini xisoblash va loyixalash | Mos adabiyotlar | Yozma | MK | | | | | | | | | |
| Ayollar syurtugi andazalarini ishlab chiqish | Mos adabiyotlar | Yozma | Andaza | | | | | | | | | |
| Ayollar syurtugiga ishlov berish | Mos adabiyotlar | Og'zaki | AK | | | | | | | | | |

## 3. « KIYIMLARGA ISHLOV BERISH ASOSLARI»NI O'QITISH BO'YICHA SILLABUSNI ISHLAB CHIQISH

3540600 - Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi tayyorlov yo'nalishining 3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar modeler – konstruktori ixtsosligi uchun «Kiyimlarga ishlov berish asoslari"ni o'qitishda sillabusi quyidagicha bo'ladi.

6-jadval

**"Tikuv buyumlari texnologiyasi" фанида "Kiyimlarga ishlov berish asoslari"ni o'qitish uchun mo'ljallangan SILLABUSI**

| "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanida «Kiyimlarga ishlov berish asoslari» mavzusini qisqacha tavsifi | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **KHKning joylashgan manzili:** | Mirobod yengil sanoat kasb-hunar kolleji | | Sariko'l ko'chasi, 32- uy | |
| **Kafedra:** | "Maxsus fanlar" kafedrasi | | | |
| **Ta'lim sohasi va yo'nalishi:** | 3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar modeler – konstruktori | Yengil sanoat mahsulotlar texnologiyasi | | |
| **Fanni olib boradigan o'qituvchi haqida ma'lumot:** | Davlatova Bahora | **e-mail:** | Davlatova B@umail.uz | |
| **Dars vaqti va joyi:** | 3-bino 32-auditoriya | **Kursning davomiyligi:** | 22 soat | |
| **Individual grafik asosida ishlash vaqti:** | Xafta kunlari bo'yicha soat 14.00 dan 16.00 gacha | | | |
| **Fanga ajratilgan soat:** | **Auditoriya soatlari** | | **Mustaqil ta'lim:** | 4 |
| | **Ma'ruza:** 8 | **Amaliyot** 10 | | |
| **Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi:** | "Kiyimlarni kompyuterda loyihalash", "Tikuv buyumlari texnologiyasi", "Tikuv buyumlari jihozlari" | | | |
| **Fanning mazmuni** | | | | |
| **Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:** | <u>**Mavzuni o'qilishdan maqsad**</u> - kasb – hunar kollejlar o'quvchilarini erkaklar kiyimlarini loyihalash va modellashtirishб технологик ишлов бериш ishlarini mustaqil bajara oladigan modeler-dizayner, bichuvchi mutaxasis tayyorlash uchun mo'ljallangan. | | | |
| **O'quvchilar uchun talablar:** | - o'qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish;<br>- - uyali telefonni dars davomida o'chirish;<br>- berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;<br>- ko'chirmachilik (plagiat) qat'iyan man etiladi;<br>- darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatda qoldirilgan darslar qayta o'zlashtirilishi shart;<br>- darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish;<br>- o'quvchi o'qituvchidan so'ng, dars xonasiga - mashg'ulotga kiritilmaydi;<br>- o'quvchi reyting ballidan norozi bo'lsa e'lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishi mumkin | | | |
| **Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi** | Professor-o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, **telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina kasb-hunar kolleji hududida, ajratilgan xonalarda** va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha | | | |
| | | | | |

**Fan mavzulari va unga ajratilgan saotlar taqsimoti:**

| № | Mavzular | Ma'ruza | Amaliy ish | Mustaqil ish |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Kiyim haqida umumiy ma'lumot | 2 | | |
| 2. | Ayollar syurtyugining zamonaviy assortimenti | 2 | | |
| 3. | Ayollar syurtugining mayda detallariga ishlov berish | 4 | | |
| 4. | Ayollar syurtuginni model eskizini ishlab chiqish | | 2 | |
| 5. | Ayollar syurtugini xisoblash va loyixalash | | 2 | |
| 6. | Ayollar syurtugi andazalarini ishlab chiqish | | 2 | |
| 7. | Ayollar syurtugiga ishlov berish | | 4 | |
| **Jami:** | | **6** | **10** | **4** |

**O'quvchilar bilimini baholash tizimi:**

| t/r | Nazorat turidagi topshiriqlarning nomlanishi | Maksimal yig'ish mumkin bo'lgan ball |
|---|---|---|
| | *Ma'ruza mashg'ulotlarda* | |
| 1. | O'quvchining ma'ruza mashg'ulotlardagi faolligi va o'zlashtirish darajasi, daftarlarning yuritilishi va holati | 1 |
| 2. | Topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi | 2 |
| 3. | AK va MK larni hisoblash va qurishning o'ziga xos xususiyatlarini bilish va amalda qo'llash | 2 |
| | **Jami:** | **5 ball** |
| | *Amaliy mashg'ulotlarda* | |
| 1. | O'quvchining amaliy mashg'ulotlardagi faolligi va o'zlashtirish darajasi, daftarlarning yuritilishi va holati | 1 |
| 2. | Topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi | 2 |
| 3. | AK va MK larni qurish hamda modellashtirish | 2 |
| | **Jami:** | **5 ball** |

| | |
|---|---|
| **Asosiy adabiyotlar:** | Mos adabiyotlar |
| **Qo'shimcha adabiyotlar:** | Mos adabiyotlar |

## II BOB. KASB - HUNAR KOLLEJLARIDA “KIYIMLARGA ISHLOV BERISH ASOSLARI”NI O’QITISHDA MASOFAVIIY TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB O’QITISH BO’YICHA O’QUV - USLUBIY MAJMUA KOMPONENTLARINI ISHLAB CHIQISH

### 1.1. “Kiyimlarga ishlov berish asoslari”ni bo’yicha nazariy mashg’ulotlar mazmunini ishlab chiqish

#### 1-Mavzu: Kiyim haqida umumiy ma’lumot

**Reja:**

1. Kiyim xaqida ma’lumot.
2. Kiyim bo’laklarini yelimlab yopishtirish.
3. Kiyimlarga namlab-issiqlik ishlov berish
4. Kiyim bichiqlarini tikishga tayyorlash.

**Tayanch iboralar:** regional, professional, qotirmalik, korset, puxtalash.

Kiyim - bu materiallarning odam tanasidagi qobiq sistemasi bo‘lib, tanani iqlirn ta’siridan saqlaydi va odamning o ‘ziga xos ba'zi xususiyatlarini namoyon qiladi. Kiyim kishilik jamiyati rivojlanishining ilk bosqichlarida paydo bo‘lgan va jamiyat taraqqyotiga mos ravishda rivojlanib, o‘zgarib kelgan. U ijtimoiy tuzum, texnika va iqtisodiyot taraqqiyoti, xalqlar milliy madaniyati xususiyatlarini, turmush tarzi, iqlim sharoiti, badiiy did va an'analarini o‘zida aks ettiradi. Kiyim deganda ich kiyim, ustki kiyim, bosh kiyim, qo‘lqop, poyafzal kabilaming keng kompleksi tushuniladi. Tikuvchilik buyumlariga kiyimdan tashqari uy-ro‘zg‘or buyumlari (dasturxon, sochiq, ko‘rpa - yostiq jildlari) texnik buyum va anjomlar (avtomobil g‘iloflari va yopqichlari, chodirlar, qoplar ) kiradi. Kiyim o‘z navbatida maishiy va ishlab - chiqarish kiyimlariga bo‘linadi.

Maishiy kiyimlarga kundalik kiyim, tantanali kiyim, uy kiyimi, sport kiyimlari, shuningdek ich kiyimlar, korset buyumlari, cho'milish kiyimi, bosh kiyimlar kiradi. Ust kiyim ich kiyim va korset buyumlari turkumidagi kiyimlar

ustidan kiyiladigan kiyimlardir, unga palto, plash, pidjak, nimcha, jaket, ko‘ylak, xalat, bluzka, yubka, erkaklar ko‘ylaklari, kombinezon va shimlar kiradi.

1. **Utilitar kiyim** - amaliy, himoyaviy, ergonologik, gigienik vazifalarni o‘z ichiga oladi.

2. **Ijtimoiy kiyim** - regional, professional marosimlarga oid simvolik vazifalarni o‘z ichiga oladi.

3. **Estetik kiyim** - badiiy obrazli vazifa bilan aynan estetik vazifani o‘z ichiga oladi.

Tikuvchilik buyumlarini namlab isitib ishlash deganda detal yoki buyumni maxsus jihozlar yordamida namlik, issiqlik va bosim bilan maxsus ishlash tushuniladi.

Tikuvchilik sanoati hamda maishiy xizmat ko‘rsatish tarmog‘i xodimlari oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalradan biri-kiyim sifatini yaxshilashdir. Tikuvchilikni rivojlantirishdagi muhim ilg‘or yo‘nalishlardan bin termofiksatsiya metodini, ya’ni ust kiyim detallariga boshqa material yopishtirish metodini joriy qilishdan iborat. Boshqa material yopish tirilgan detallar kiyimning tashqi ko'rinishini ko‘rkamlashtiradi va kiyish davomida shaklini o ‘zgartirmaydi. Detallarga bir tomoniga yelim qoplangan qotirmalik materiallar yopishtiriladi. Ust kiyimda kiyim old bo‘lagi, adip, ustki yoqa, ostki yoqa, cho‘ntak qopqoqlar, listochkalar kabi detallarga qotirma yopishtiriladi. Kiyimning ayrim joylari kiyim old bo‘lagining bo‘rti atroflari, kiyim old bo'lagining qirqma yon qismlari, koketkalar hamda detallarning qirqimlari: kiyim etagi, yeng uchi, yoqa va yeng o‘mizlari, yon cho‘ntaklarning qirqimlari va xokazoni puxtalash uchun ham qotirmalar yopishtiriladi.

Detallarga yopishtirish uchun ip gazlama va viskoza asosidagi bir tomoniga yelim qoplangan hamda noto‘qima materiallar ishlatiladi.

Qotirmalik materiallardan bichiladigan detallar asosiy detallardan 0,3-0,5 sm ensizroq bo‘lishi, qotirmaning qirqma chetlari ulash choklariga 0,1-0,2 sm kirib turishi kerak. Yopishtirish uchun mo‘ljalingan qotirmalik materiallardan

tikilgan detallarning bo‘ylama ipi avradetallaridagi bo‘ylama ip yo‘nalishida bo‘lishi lozim.

Yelim qoplamali gazlamalardan bichilgan qotirmalik detallar asosiy detallaliga vitachkalar, bo‘rtmalar tikishdan, cho‘ntaklarni ishlash va ularni boshqa detallarga biriktirishdan oldin, ya’ni biriktirish chokini tikishdan oldin yopishtiriladi. Detallarga qotirma yopishtirish jarayoni namlab-isitib ishlash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Qotirmalarni asosiy detallarga biriktirishda oldin asosiy detal o‘ngini pastga qilib qo‘yiladi, so‘ngra yelim qoplangan qotirmalik material asosiy detalning teskari tomoniga qo‘yiladi. Yengil kiyimda qotirmalik materiallardan bichilgan detallar yoqa, manjet, cho‘ntakqopqoq, listochka, belbog‘, bort yoki adip va boshqa detallar pastki asosining teskari tomoniga qo‘yiladi va dazmollab yopishtiriladi.

Qotirmalik detallarni asosiy detallarga yopishtirishda gazlamalardagi tolalar tarkibiga qarab ma’lum texnologik rejimlarga rioya qilish zarur.

Namlab — isitib ishlash kiyimlarni tikish jarayonida va tayyor buyumni pardozlashda bajarilishi mumkin. Namlab isitib ishlashdan asosiy maqsad buyum detallariga xajmiy-fazoviy shakl berish va har xil choklami ishlash, uzil-kesil pardozlash, detallarni yelim bilan biriktirishdan iborat.

Namlab isitib ishlash jarayoni uch bosqichdan iborat:

1) tolalami namlik va issiqlik bilan yumshatish

2) bosim bilan ma’lum shakl berish

3) issiqlik va bosim yordamida namlikni ketkazish va shaklni mustahkamlash.

Namlab-isitib ishlash jarayonlari dazmollash, presslash va bugiash jarayonlariga bolinadi. Gazlama iplanning o‘rilish zichligiga qarab namlab isitib ishlash jarayoni ularga har xil ta’sir qiladi. Namlab-isitib ishlov berishga turli materiallar har xil ta’sir etadi, u materialning olali tarkibiga, buralish darajasiga, materialning o'rilishiga, ishlov beriladigan detaining qalinligiga va x.k.ga bog‘liq. shuning uchun talab qilingan sifatni ta’minlash, material xossasini saqlash, ish unumini oshirish, ishlov berish tartibini to‘g‘ri tanlash va unga rioya qilish kerak. Namlab-isitib ishlash tartibi deganda ish sifatini ta’minlovich temperatura,

namlik, ulaming ta’sir etish davomiyligi va bosimi hamda ulaming o ‘zaro bog‘liqligi tushuniladi. Ishlov berish jarayonini tezlashtirishga ta’sir etuvchilardan biri namlik bo‘lib, uning miqdori material turiga bog‘liq. ortiqcha namlik ishlov berish vaqtini uzaytiradi, ish unumini pasaytiradi, sifatini yomonlashtiradi. Material o‘z xossasini o‘zgartirmaydigan darajagacha isitiladi. Harorat, tolaning issiq bardoshligiga bog‘liq. Yo‘l qo‘yiladigan ortiqcha qizdirish mustaxkamlikni pasaytiradi va rangini o‘zgaitiradi, hatto materialni yemiradi. Dazmollash sirtining buyumga tegib turish davomiyligi dazmollanayotgan buyumning materialiga va qilinligiga bog‘liq. Shaklni saqlash uchun namlikni yo‘qotish kerak, ya’ni buyumlar issiq havo yoki issiq bug1 ta’sirida quritiladi, bunda nam so‘rib olinadi, materialga issiq havo purkab quritiladi. Issiqlik-namlik ishlovi dazmollash (dazmol bilan), presslash (press yordamida) va bug‘lash (bug1 manekenlari yordamida) orqali bajariladi.

Kiyim tikish jarayoni uch asosiy bosqichdan iborat:

1. Model, konstruksiya va andazalar tayyorlash;
2. Gazlamani tikishga tayyorlash va bichish (ya’ni tayyorlov -bichish uchastkasidagi ishlar);
3. Buyumni tikish va bezash.

Kiyimlarni ko‘plab ishlab chiqarish uchun buyumlarning modellarini yaratish va loyihalash bilan modalar uyi, texnika, tajriba laboratoriyalari, ayrim korxonalarda esa yuqori malakali rassom - modelerlar va konstaiktorlari bo‘lgan eksperimental sexlar modular uyi rahbarligida shug‘ullanadi. Buyumlarni konstruksiyalash ular konstruksiyasini yaratish arayonidan iborat. Konstruksiya buyumning haqiqiy kattalikdagi chizmasi bo‘lib, unda qirqimlar bo‘yicha detallaming tutashish joylari va tikish usullari ko‘rsatiladi. Andazalar, texnik hujjatlar va modellarning namunalari tikuvchilik fabrikasiga keltiriladi. Har bir tikuvchilik korxonasida tikish jarayonida kiyim uchta asosiy uchastkadan; eksperimental sex, tayyorlov-bichish uchastkasi va tikuv sexidan o‘tadi. Fabrika eksperimental sexi xodimlarining vazifalari: modalar uyidan modellar

namunalarini, kiyim andazalarini va texnik hujjatlarini olish; andazalami tekshirish;

-ko‘paytirish va tayyorlash;

-andazalarni aralash joylashtirish uchun razmer va rostlarni birlashtirish;

andazalami ekspremental yo‘l bilan joylashtirishva gazlama sarfi normasini aniqlash; trafaretlar tayyorlash;

ishlab chiqarishda gazlamalardan to’g‘ri foydalanishni nazorat qilishdan iborat.

Tayyorlash sexida gazlamalar qabul qilinadi vasaqlanadi, sifati tekshiriladi, gazlama to‘plari uzunligi o‘lchanadi va saralanadi, to‘shamalaiga gazlama tanlanadi, to‘shamalaming ustki qavatlari bo'rlanadi. Bichish sexida gazlamalar to‘shaladi, to'shama bolaklarga qirqiladi, buyum detallarini qirqib olinadi, bichish sifati tekshirilib, bichilgan detallar to‘plab qo’yiladi. Tikuvchilik sexida choklaydigan va maxsus mashinalar, shuningdek namlab — isitib ishlov beradigan uskunalar bilan jihozlangan texnologik potoklaida kiyim tikiladi. Yirik korxonalarda pardozlash sexida namlab - isitib ishlash operasiyalari bajariladi, natijada tayyor kiyim tovar ko‘rinishini oladi. Pardozlash sexidan kiyim tayyor maxsulotlar omboriga jo ‘natiladi.

## Nazorat savollari

1. Kiyim qanday vazifani bajaradi?
2. Utilitar kiyim qanday vazifalarni o‘z ichiga oladi?
3. Ijtimoiy kiyim qanday vazifalarni o‘z ichiga oladi?
4. Estetik kiyim qanday vazifani o‘z ichiga oladi?
5. Maishiy kiyimlarga nimalar kiradi?
6. Tikuvchilik buyumlarini namlab isitib ishlash deganda

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Sh.Jabborova. Tikuvchilik texnologiyasi. Toshkent. O’zbekiston. 1994 y.
2. N. M. Konopaltseva, P. I. Rogov, N. A Kryukova “ Konstruirovanie i texnologiya izgotovlenie odejdы iz razlichnых materialov” Maskva “Akademiya” 2007.

## 2-Mavzu: Ayollar syurtyugining zamonaviy assortimenti

**Reja:**

1. Ayollar syurtyugining zamonaviy moda yo’nalishi tavsifi.
2. Buyumga qo’yiladigan talablar.
3. Model uchun mos materiallar tavsifi.
4. Konstruktiv va metodikalar

***Tayanch tushunchalar:*** ergonomik, funksional, gradatsiya, konstruktsiya

2014-2015 yili baxorgi-kuzgi mavsumda bolalar kiyimida asosan yorqin ranglar modada saqlanib qolmoqda. Zamonaviy kiyim uning vazifasini aniqlaydligan himoyaviy funktsiyalar asosida tasniflanadi. Zamonaviy moda bir xillikni qabul qilmaydi. Moda har yili, har mavsumda o’zgaradi. Kiyimda qo’llaniladigan aksessuarlar, foydalanilgan materiallar rangi mavsumga xos holda tanlab olinadi.

Material estetik, gigiyenik, ekspluatatsion, iste'molchi, texnologik talablarini qo’ygan holda tanlandi. Materiallarni har birining o’z plastik xususiyatlari, dekorativligi, fizik-mexanik xususiyatlari bo’lib, shaklning xarakteri va konstruktiv yechimi qanday hal etilishi shu echim xususiyatlari bilan bog’liq.

Ayollarga asosan tashqi ko’rinish asosiy o’rinda bo’ladi, yorqin rang, qulaylik va yagona uslub. So’nggi yillarni kuzatadigan bo’lsak ayollar syurtuklarini asosan qora, jigarrang, kulrang, ko’k kabi ranglarni uchratdik. Ayollar syurtuklarini  kuzgi-bahorgi kiyim hisoblanganligi uchun yorqin ranglar tavsiya etilmaydi. Konstruksiyasi to’gri  va nim yopishgan korinishdagilari

hozirgi kunda urf bo'lgan. Hozirgi vaqtda dizaynerlardan yangicha uslubdagi kiyimlar yaratishlarini talab etmoqda.

Iste'molchi talablari inson o'z ehtiyojini qondirishga qaratilgan, ular ijtimoiy, estetik, ergonomik va ekspluatasion talablarni o'z ichiga oladi.

**Ergonomik talablar** - jumlasiga buyumni eksplutatsiya qilish davrida inson uchun qulay sharoit yaratuvchi, uni toliqtirmaydigan sharoit tug'diruvchi faktorlar kiradi.

**Estetik talablar** - model konstruksiyasining badiiy butunligi, mukammalligi va zamonaviy moda talablariga javob berishi hamda haridorgirligi kiradi. Estetik hususiyatga javob bermaydigan buyum foydasiz buyumga aylanadi, chunki u insonni estetik talabini qondirishi kerak.

**Funksional talablar -** model aniq bir vazifaga moljallangan, iste'molchining antropometrik o'lchamlari guruhiga mos kelishi kerak. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yilqdigan talablarni shakllantira oladi.

**Eksplutatsion talab -** buyumni foydalanishga yaroqli holini uzoq muddat davomida saqlay olish qobiliyatidir. Bunda model o'z shaklini saqlovchanligi, materialni mustahkamligi, biriktiruvchi choklarning uzilishga chidamliligi kabi talablarga javob berishi kerak.

**Ijtimoiy talab -** buyumning ishlab chiqishi va sotishga muvofiqligini bildiradigan ommaviy ehtiyojlarga mosligini harakterlaydi. Mahsulot sifatini ta'minlashda ijtimoiyomillar roli ilmiy-tehnik taraqqiyot va moddiy farovonlik o'sgan sari oshaveradi.

Ustki kiyimlarni ishlab chiqarish uchun asosan jins va tukli trikotaj matolardan foydalaniladi. Djins gazlamalari sarja o'rilishida tandasida rangli iplardan, arqog'ida esa xom iplardan to'qiladi. Bu gazlamaning g'ijimlanmasligini va kiyimning shaklini saqlash xususiyatini ta'minlash uchun unga yuvilib ketmaydigan appret bilan ishlov beriladi. Avrim artikullarning tolali tarkibiga lavsan tolasi qo'shiladi. Djins gazlamasi yoshlar sport kiyimi, kurtkalar, shimlarni tikish uchun keng qo'llaniladi.

Barcha konstruktsiyalash usullari nazariy tayanchsiz, konstruktorning shaxsiy tajribasi va intuitsiyasiga asoslangani sababli kator davlatlar xamkorligida 1976 yildan 1980 yilga qadar konstruktsiyalash umumiy uslubini yaratish uchun kiyim konstruktsiyalash soxasida muxim masalalar echildi.

Ayollar konstruksiyasini qurishda YEMKO SEV usulidan keng foydalaniladi Mazkur usul quyidagi xususiyatlarga ega:

-kiyim konstruktsiyalash bo’yicha nufuzli davlatlar tiliga xos atamalar majmui tuzildi;

-konstruktorlik xujjatlarning yagona tizimiga asoslangan kiyim konstruktsiyasiga oid texnik chizmalar qoidalari ishlab chiqildi;

-erkaklar, ayollar va bolalar nufuziga mo’ljallangan kiyimlar yagona konstruktsiyalash uslubining nazariy asoslari yaratildi;

-kiyimlar asosiy turlarining bazaviy konstruktsiyalari tuzildi;

-kiyim detallari gradatsiya tamoyillariga asoslanib tavsiya qilinadi;

-konstruktsiya tuzishda materiallar xususiyatlarini xisobga olish bo’yicha tavsiyalar tuzildi;

-konstruktsiyada texnologiyaning xisobga olinadigan xususiyatlari ko’rsatildi.

Ushbu tavsiyalar 1981 yildan 1985 yilgacha laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida keng miqyosda sinalgandan so’ng kiyim konstruktsiyalash yagona uslubi (YEMKO) sifatida amaliyotga yo’llanma oldi.

Birlashgan davlatlar yagona uslubi kiyimlarning xamma xili, xamma turi va barcha erkaklar, ayollar, o’g’il bolalar, qizlar yoshi va jinsiga oid guruxlari umumiy va yagonadir.

Assortimentni bichimi, vazifasi bo’yicha farqlanadigan, turli materiallardan yakka tartibda va ommaviy tarzda tayyorlanadigan turli kiyimlar konstruktsiyasini ishlashda ushbu uslub dastlabki baza sifatida qo’llanishi mumkin. Mazkur uslub ilmiy jixatdan asoslangan, chunki uning dastlabki bazasi sifatida nufuzli davlatlar axolisining antropometrik o’lchamlari, ilmiy jixatdan

asoslangan konstruktiv va texnologik qo'shimchalar tizimi va konstruktsiya qurishda taxliliy xisoblash formulalari ishlatiladi.

**Nazorat savollari:**

1. Ayollar syurtyugining zamonaviy moda yo'nalishi tavsifi.
2. Buyumga qo'yiladigan talablar.
3. Ergonomik talablar deb nimaga aytiladi?
4. Eksplutatsion talab deb nimaga aytiladi?
5. Funksional talablar deb nimaga aytiladi?
6. Model uchun mos materiallar tavsifi.
7. Konstruktiv va metodikalarning qanday turlari bor?

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. M.Sh.Jabborova. Tikuvchilik texnologiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 1994 y.
2. N. M. Konopaltseva, P. I. Rogov, N. A Kryukova " Konstruirovanie i texnologiya izgotovlenie odejdы iz razlichnых materialov" Maskva "Akademiya" 2007.

## 3 Mavzu. Ayollar syurtugining mayda detallariga ishlov berish

**Reja:**

1. Ayollar syurtugining yoqasiga ishlov berish
2. Ayollar syurtugining yon qoplama cho'ntagiga ishlov berish
3. Ayollar syurtugining qoplama cho'ntagiga ishlov berish
4. Ayollar syurtugining etak uzeliga ishlov berish

***Tayanch tushunchalar:*** bort, uzel, qotirma, listochka, trikotaj, zigzak, biriktirma, bostirma.

Jins matosidan tikiladigan ayollar syurtyugiga ishlov berish uchun asosan mashina choklari ya’ni, yassi chok va zanjirsimon choklar qo’llaniladi.Yassi va zanjirsimon choklar bilan tikilgan kiyimlar o’zining elastiklik xususiyati bilan qulay hisoblanadi. Ayollar syurtyugiga islov berishda modelga muvofiq quyidagi choklar ishlatiladi.

Birlashtiruvchi chok – yoqalarga, qoplama, qirqma cho’ntaklarda, bort burchaklarda foydalanish mumkin.

Zigzak chok esa asosan izma ochishda, tugma qadashda qo’llaniladi.Jins buyumlarining etak va yeng uchi bir ipli ko’rinmas zanjir chokda yoki ikki va uch ignali mashinalarda to’g’r i yassi chokda tikiladi.

Ayollar va bolalar kiyimlarida yoqa chetlarini mag‘iz chok bilan ishlov berish keng qo’llaniladi. Bunda ustki va ostki yoqalar teskari tomonlarini ichkariga qilib juftlanadi va chetlari qirqimlaridan 0,2-0,3 sm masofada ko’klab chiqiladi.Tanda ipiga 45° qiya qilib bichilgan mag'izni o’ngini ustki yoqaga qaratib qo’yiladi va 0,5 sm chok haqi qoldirib biriktirib tikiladi. Mag’iz ostki yoqa tomonga chok atrofidan aylantirib o’tkaziladi, ochiq qirqimli tomoni ichkariga bukiladi va mag’iz biriktirilgan chokni yopadigan qilib to’g’rilanib, qo’lda ko’klab olinadi. So’ngra mag’iz biriktirilgan chok yonidan 0,1-0,15 sm masofada ustki yoqa tomonidan baxyaqator yuritiladi.

***Qoplama cho’ntakka ishlov berish.*** Buyumlarda qoplama cho’ntaklar keng qo’llaniladi.Ular konstruksiyasiga ko’ra turlicha bo’lishi mumkin: ishlov berilgan ziyli, cho’ntak og’zi yuqori yoki yon tomonda, ziylarimag’izlangan, plankali, yaxlit bichilgan qopqoqli, kettel mashinasida ishlov berilgan va h.k. Qoplama cho’ntaklarga ishlov berish cho’ntak ziylariga ishlov berish va buyum bilan biriktirishdan iboratdir. Cho’ntak yuqori ziyiga bukma chok, yo’rmalash, planka bilan (1-rasm), yonziylariga yo’rmalab (a), mag’izlab (b), kettel mashinasida (c), bezak tasmani yassi chok mashinasida (d) bostirib tikish bilan ishlov berish mumkin (2-rasm.).




1-rasm.Qoplamacho’ntakyuqori ziyigaishlovberish




2-rasm.Qoplamacho’ntak yon ziylarigaishlovberish

Qoplama cho’ntak ikki qavatli bichilgan bo’lsa, ziylari 0,5-0,7sm kenglikdagi ag’darma chok bilan tikilib, ag’darish uchun 5-7sm uzunlikda chok tikmay qoldiriladi. Cho’ntak o’ngigaag’darilgandan so’ng, burchaklari maxsus moslama yordamida to’g’rilanadi. Ustki bo’lakdan 0,2sm kant hosil qilib qoplama cho’ntak dazmollanadi (3-rasm).




3-rasm.Ikki qavatliqoplama cho’ntakni tayyorlash

Old bo’lak bilan biriktirishda asosan qo’yma chok qo’llanadi, bunda mag’izlash choki ustidan yoki bezak chok sifatida baxyaqator yuritilishi mumkin (9-rasm).

Ko’pincha yon chokka qo’shib tikiladigan qoplama cho’ntaklarga ishlov beriladi. Bunday holda cho’ntakni old bo’lak bilan avval pastki ziyi biriktiriladi, asosiy detalning o’rta chizig’i tomonidagi yon ziylari bostirib tikiladi va yon qirqimni biriktirish vaqtida ikkinchi yon ziyi biriktiriladi (4-rasm).



4- rasm. Qoplama cho’ntakni old bo’lak bilan biriktirish




4-rasm.Yon chokka qo’shib tikiladigan qoplama cho’ntak

Zich to‘qilgan gazlamalardan va jins tipidagi gazlamalardan tikilgan syurtuklar, shuningdek, plisse, gofre yubkalar etak qirqimlari yo‘rmab qo‘yiladi. Ko‘ylak etagining bukish haqi belg ilangan chiziq bo‘ylab bukilib, yashirin baxyali mashinada tikib qo‘yiladi. Syurtukning etagi ochiq qirqimli bukma chok bilan ham ishlov berilishi mumkin, bunda avval ochiq qirqim yo‘rmab olinadi, so‘ngra etak tikib qo‘yiladi.

**Nazorat savollari:**

1. Jins matosi nima va u qanday xususiyatlarga ega?
2. Jins matosidan tikilgan syurtukda qanday choklar qo'llaniladi?
3. Jins buyumlarda dastlabi ishlov berish qanday operatsiyalarni o'z ichiga oladi?
4. Ayollar syurtukni bortiga ishlov berishning qanday usullarini bilasiz?
5. Old bo'lak bilan yaxlit va alohida bichilgan bortga ishlov berishda kamchilik hamda afzalliklarni tushuntirib bering.
6. Jins buyumlarda uchraydiga qanday cho'ntak turlarini bilasiz va ayollar syurtukni uchun qaysi turini tavsiya etasiz?

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. M.Sh.Jabborova. Tikuvchilik texnologiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 1994 y.
2. N. M. Konopaltseva, P. I. Rogov, N. A Kryukova " Konstruirovanie i texnologiya izgotovlenie odejdы iz razlichnых materialov" Maskva "Akademiya" 2007.

## 1.2. «Ayollar syurtugiga ishlov berish» bo'yicha amaliy mashg'ulotlar mazmunini ishlab chiqish

### 1- Мавзу: Ayollar syurtuginni model eskizini ishlab chiqish

**Mashg'ulotning maqsadi:** Model eskiziga muvofiq asos konstruktsiyada model chiziqlarini kirgizishni o'rgatishga doir bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

**Ishning mazmuni:**

1. Ayollar syurtugiga qo'yiladigan talablar.
2. Ayollar syurtugi model eskizini ishlab chiqish.

### O'quvchilarga uslubiy ko'rsatmalar

**Syurtuk** — Ko'chaga kiyish uchun mo'ljallangan yengi uzun (uzun yoki uzunlikda), oldi etakkacha taqilmali, cho'ntak va yoqali turlari ko'p uchraydi. Odatda syurtuk astar bilan tikiladi. Syurtuk ichidan ko'ylak yoki kostyum kiyiladi. Palto odatda qishki (issiq tutuvchi astar bilan), kuzgi (mavsumiy). Syurtuk xar xil siluetli bo'lishi mumkin: to'g'ri, trapetsiya, yopishgan, nim yopishgan, xar xil turdagi yoqa va yengli (o'tkazma, reglan, yaxlit, kombinatsiyalashgan).

**Ergonomik talablar** - jumlasiga buyumni eksplutatsiya qilish davrida inson uchun qulay sharoit yaratuvchi, uni toliqtirmaydigan sharoit tug'diruvchi faktorlar kiradi.

**Estetik talablar** - model konstruksiyasining badiiy butunligi, mukammalligi va zamonaviy moda talablariga javob berishi hamda haridorgirligi kiradi. Estetik hususiyatga javob bermaydigan buyum foydasiz buyumga aylanadi, chunki u insonni estetik talabini qondirishi kerak.

**Funksional talablar -** model aniq bir vazifaga moljallangan, iste'molchining antropometrik o'lchamlari guruhiga mos kelishi kerak. Ayni

buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yilgan talablarni shakllantira oladi.

**Eksplutatsion talab -** buyumni foydalanishga yaroqli holini uzoq muddat davomida saqlay olish qobiliyatidir. Bunda model o'z shaklini saqlovchanligi, materialni mustahkamligi, biriktiruvchi choklarning uzilishga chidamliligi kabi talablarga javob berishi kerak.

**Ijtimoiy talab -** buyumning ishlab chiqishi va sotishga muvofiqligini bildiradigan ommaviy ehtiyojlarga mosligini harakterlaydi. Mahsulot sifatini ta'minlashda ijtimoiyomillar roli ilmiy-tehnik taraqqiyot va modddiy farovonlik o'sgan sari oshaveradi.

Ayollar syurtugining turli xil modellari bo'lib, ularning konstruktiv texnologik xususiyatlarini yoritishda bir qator omillarga e'tibor beriladi. Model eskizi vazifasiga ko'ra to'liq butun kostyum sifatida, ya'ni bosh kiyim (agar zarur bo'lsa), ust kiyim, poyafzal, aksessuarlar bilan to'liq ko'rsatiladi. Eskizlar har qanday tasviriy texnikadan foydalangan holda old va ort ko'rinishida bajariladi. Eskizga quyidagi talablar qo'yiladi:

- eskizlarni grafik jihatdan yuqori darajada bajarish;
- eskizni va uning alohida bo'laklarini, elementlarini yagona uslubda berish;
- shakllarning yaqqolligi, ifodaliligi;
- ranglarning uyg'unligi;
- buyumning dekorativ-naqsh yechimi uning vazifasiga bog'liq bo'lishi kerak.

Tavsiya qilingan modelning batafsil tavsifi beriladi. Model tashqi ko'rinishining tavsifini tuzganda asosiy detallarning konstruksiyasiga ahamiyat qaratiladi. Model tashqi ko'rinishining tavsifi quyidagi ketma-ketlikda tuziladi:

- kiyimning nomi, vazifasi, materiali.
- shakli (silueti, bichimi, taqilmasi).
- old bo'lak konstruksiyasining tavsifi.
- ort bo'lak konstruktsiyasining tavsifi.
- yenglar konstruktsiyasining tavsifi.
- yoqa konstruktsiyasining tavsifi.

- astar tavsifi.
- bort, latskan va etak bezaklarining turi.
- tavsiya qilingan razmer va bo'ylar tavsiflanadi.

Ayollar uchun syurtuk. Materiali – djins gazlama. Syurtuk tugri siluetli, bir bortli, beshta tugma va izmali taqilmali. Old bo'lak koketkali, koketka ostida qoplama cho'ntakli. Qoplama cho'ntak ostidan relef chokli. Old bulak yon qismi qoplama cho'ntakli. Ort bo'lak belbog'li. Old bo'lak ko'krak qoplama cho'ntak qopqog'i, old bo'lak yon cho'ntagi, old koketka va yoqa chetida bezak chok bilan ishlov berilgan. Yoqasi tik yoqali. Yengi o'tkazma bir chokli uzun. Syurtuk cho'ntak qopqog'i, yoqa cheti, yon cho'ntak bezak matoda ishlov berilgan.

**Amaliy ish xisobotini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar**

1. Zamonaviy moda yo'nalishini taxlil qilish orqali Ayollar uchun syurtuk assortimentini tavsiflash.
2. Ayollar uchun syurtugini model eskizini ishlab chiqish va A4 formatli qog'ozga yuksak badiiy yechimga asoslangan xolda chizish.
3. Tanlangan syurtuk modeliga tavsif berish.
4. Amaliy ish xisoboti A4 qog'ozga rasmiylashtirladi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**


**1.** Komilova X.X., Xamraeva N.K. Tikuv buyumlarini konstruktsiyalash. 2003 y

2. Булатова Е.Б., Евсеева М.Н. Конструктивное моделирование одежды. М., 2004 г.
3. Коблякова Е.Б. и др. Конструирование одежды с элементами САПР. М., 1988 г.
4. Рахманов Н.А., Стаханова С.И. Устранение дефектов. М., 1985 г.
5. Мартынова А.И., Андреева Е.Г. Конструктивное моделирование одежды. М., 2002.
6. Единая методика конструирования одежды СЭВ (ЕМКО СЭВ). Базовые конструкции мужской одежды. Том 3. – М., 1988 г.

## 2- Мавзу: Ayollar syurtugini xisoblash va loyixalash

**Машғулотнинг мақсади:** Model eskiziga muvofiq asos konstruktsiyani xisoblash, qurish va model chiziqlarini kirgizishga oid bilim va ko’nikmalarini shakllantirish.

**Ishning mazmuni:**

1. Ayollar syurtugi konstruktsiyasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlarni tanlash.
2. Ayollar syurtugi old va ort bo’lak model konstruktsiyasini ishlab chiqish.
3. Ayollar syurtugi yengi model konstruktsiyasini ishlab chiqish.

### O’quvchilarga uslubiy ko’rsatmalar

Ayollar syurtugi AK chizmasini qurish uchun dastlabki ma’lumotlar sifatida o’lchamlar va qo’shimchalar olinadi. AK tuzishda tipaviy qomat o’lchamlari tarmoq standarti (OST) va davlat standarti (GOST)dan tanlanadi. Muayyan qomatga o’lchamlar individual qomatdan olinadi. O’lchamlar soni tanlangan va ishlanayotgan ob’ekt assortimentiga bog’lab olinadi, tushuntirish xatida razmer o’lchamlari 1 - jadvalda keltiriladi.

]

1 - jadval

Tipaviy (individual) qomatning o’lchamlari
Bo’y (T1) 164, razmer (T16) 96, to’lalik guruhi (T18 yoki T19) 76

| № | O’lchamlar nomi | Shartli belgilar | Qiymati, sm |
|---|---|---|---|
| 1. | Bo’y | T1 | 164 |
| 2. | Ko’krak aylanasi | T16 | 96 |
| 3. | Bo’ksa aylanasi (korin chizig’i b-i) | T19 | 104 |
| 4. | Bo’yin asosidagi nuqtaning balandligi | T4 | 139,9 |
| 5. | Bel chizig’inig balandligi | T7 | 103,2 |
| 6. | Tizza nuqtasining balandligi | T9 | 45,4 |
| 7. | Bo’yin nuqtasining balandligi | T10 | 141,0 |

